## MAJBURIY FANLAR

### ONA TILI

1. Qaysi gapda qo‘shimcha qo‘shilishi bilan bog‘liq imloviy xatolik mavjud?
A) *Og‘ir mehnat uni nihoyatda toliqdirib qo‘ygan edi.*
B) *Shimoldan esgan kuchli shamol uzoq davom etgan edi.*
C) *Bu gap osmonlarda uchib yurgan yigitni birpasda yerga tushirdi.*
D) *Oshni hammaga bir xil qilib suzdirdi.*

2. Qaysi javobda **bog‘langan qo‘shma gap berilmagan?**
A) *Og‘izga kelganini demoq nodonning ishi va oldiga kelganini yemoq hayvonning ishi.*
B) *Baraka top, jiyan. Sen borsan, ko‘nglim to‘q.*
C) *Goh kechalari shamol bo‘riday uvillab chiqardi, goh sharros yomg‘ir quyib qolardi.*
D) *Gulchehra "piq" etib kuldi-da, cho‘zilib tugunni oldi.*

3. Qaysi javobdagi so‘zlar **to‘g‘ri** yozilgan?
A) *sholg‘om, tamom*
B) *varaq, navbat*
C) *orkestr, tamon*
D) *tormiz, gavda*

4. Qaysi javobdagi ajratib ko‘rsatilgan so‘z **ko‘chma ma’noda** qo‘llangan?
A) *sehrli soz*
B) *tik qoya*
C) *qora mushuk*
D) *do‘stlik ipi*

5. Qaysi javobdagi **baland** so‘zi *qadr-qimmatli, e’zozli* ma’nolarida qo‘llangan?
A) *Mijg‘ov va past, g‘iybat gaplardan Jajji she’rim qo‘yurman baland.*
B) *Qishloq qizining g‘ururi baland bo‘ladi.*
C) *Toshkent shahrida baland binolar juda ko‘p.*
D) *Futbol musobaqasida raqiblarning qo‘li baland keldi.*

6. Qaysi javobdagi so‘zlar **qo‘shib yozilishi** kerak?
A) *tele // ko‘rsatuv, och // sariq*
B) *kino // teatr, liq // to‘la*
C) *foto // studiya, elektro // apparat*
D) *bayram // oldi, har // bir*

7. *Bizning shunday ulug‘ she’riyatimiz gapda bor, boylikda beqiyos ona tilimiz bor.*
Ushbu gapda olmoshning **qaysi ma’noviy guruhi** ishtirok etgan?
A) *ko‘rsatish, belgilash*
B) *kishilik va o‘zlik*
C) *gumon belgilash*
D) *kishilik va ko‘rsatish*

8. Qaysi so’zlar qatori bo‘g‘inga **to‘g‘ri ajratilgan?**
A) *taas-su-rot, ko-mis-siy-a, kon-trakt*
B) *min-nat-dor, mu-ro-ja-at, shtan-ga*
C) *ta-raqq-iy-ot, ta-al-luq-li, yon-gan*
D) *bro-ker, ta-aj-jub, kel-din-giz*

9. Qaysi gapda tinish belgisi **to‘g‘ri qo‘llangan?**
A) *Ruboiyni ichida o’qidi, yuzini tabassum qopladi.*
B) *Hamal keldi- amal keldi.*
C) *Yigitlar daraxtlarning tagini yumshatdilar – qizlar maktab hovlisini supurdilar.*
D) *Oyim endi o’rnidan turayotgan edi eshik shaxt bilan ochildi.*

10. *Odamni katta gavda emas, aql yuksaltiradi.*
Berilgan gapda sifatning **qaysi daraja** shakli ishtirok etgan?
A) *oddiy*
B) *qiyosiy*
C) *orttirma*
D) *ozaytirma*

### MATEMATIKA

11. Eng katta ikki xonali butun son va eng kichik ikki xonali butun toq sonlar **yig’indisini toping.**
A) 110
B) 88
C) 0
D) 109

12. **Hisoblang**. $-12 + (-6 + (-3 - 5) + 1) + 3$
A) $-6$
B) $-4$
C) 3
D) 9

13. **Tenglamani yeching.**
$5(x-1) + x = 3(x-1) + 3x$
A) 1
B) 0
C) 6
D) ∅

14. Berilgan to’plamning **modasini toping .**
6,4,7,4,5,8,6,4,5,7,2,4,9,5,2,0
A) 7
B) 4
C) 2
D) 5

15. Rasmda to’rtta teng to’g’ri to’rtburchak yordamida hosil qilingan shakl tavirlangan. Agar bitta to’g’ri to’rtburchak *bo’yi* $3\ m$, *eni* $5\ m$ bo’lsa, bo’yalgan soha **yuzini** toping ($m^2$).



A) 15
B) 30
C) 45
D) 60

16. Sinfda 10 ta o’quvchi bor, ulardan sinf sardori va yordamchisini **necha xil** usulda tanlab olish mumkin?
A) 90
B) 30
C) 45
D) 100

17. **Hisoblang**. $\frac{1}{2} + \frac{2}{3} + \frac{3}{4} + \frac{5}{6}$
A) $\frac{9}{4}$
B) $\frac{15}{8}$
C) $\frac{11}{4}$
D) $\frac{13}{6}$

18. Rasmda tasvirlangan *uychaning* tom qismida ***ABC uchburchak*** tasvirlangan bo’lib. $\angle A = \angle C = 55°$ bo’lsa, $\angle B$ ni toping.




A) 50°
B) 65°
C) 60°
D) 70°

☎ @onatili_sam // ✆ +99890 505 21 25

19. **Soddalashtiring**. $2^2a + 4a - 3b + 3^3b$
A) $8a + 24b$ B) $8a - 12b$
C) $8a + 6b$ D) $8a - 16b$

20. **Taqqoslang**. $a = 0{,}634$, $b = \frac{4}{5}$ $c = \frac{7}{5}$
A) $c > a > b$ B) $c > b > a$
C) $a > b > c$ D) $c > a > b$

## TARIX

21. 1805-yil Qo'qon xonligi o`zing **dinori** zabt ettirgan shaxni belgilang?
A) Umarxon B) Abdulkarimbiy
C) Norbo'tabiy D) Olimxon

22. **Quyidagilardan qaysi** biri XX asrning birinchi yarmida tashkil topgan?
A) Turkiston general-gubernatorligi
B) Xorazm Xalq Sovet Respublikasi
C) Toshkent bekligi
D) Samarqand xonligi

23. Quyidagi shaxslardan qaysi biri **"xorazmshoh"** unvonini tiklagan?
A) Qutbiddin Muhammad B) Otsiz
C) Elarslon D) Takash

24. 1864-yil M.Chernyayev **qaysi** shaharni egallash uchun olib borgan birinchi harakatida 70 nafar askaridan ayrilib mag`lubiyatga uchradi?
A) O'ratepa B) Toshkent C) Xiva D) Samarqand

25. Qaysi davrdan boshlab ishlab chiqaruvchi xo`jalikka o`tildi?
A) neolit B) o'rta paleolit
C) mezolit D) so'nggi paleolit

26. Ilk o'rta asrlarda yashab, yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega bo'lgan erkin ziroatchilar tabaqasi qanday atalgan?
A) dehqon B) chokar C) kashovarz D) kadivar

27. 1186-yilda butunlay tugatilgan davlatni toping.
A) Saljuqiylar davlati B) G'aznaviylar davlati
C) Somoniylar davlati D) Qoraxoniylar davlati

28. Buxoro xonligida qaysi shaxsga "Buxoro shoirlari taxtida sulton" degan nom berilgan?
A) Nishotiy B) Vola
C) Mujrim Obid D) Sayida Nasafiy

29. XIX asr o'rtalarida xonliklarida **vaqf** yerlaridan olinadigan foydaning hisob-kitobi va taqsimoti bilan qaysi lavozim egasi shug'ullangan?
A) shayxulislom B) mutavalli
C) mehtar D) mushrif

30. O'zbekiston Respublikasida **1991-yilda** tashkil etilgan siyosiy partiyani toping.
A) O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi
B) O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi
C) O'zbekiston "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasi
D) O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi

@ONATILI_SAM

Shu kabi testlarni **@onatili_sam** telegram kanalidan topishingiz mumkin.

SUPER TEST